



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Shamol ham,suv ham o'zicha kuy kuylarkan,yaratgan ularning har biriga o'ziga mos bir sirni xos etgan.

Niam –xudoga shukur aytish
Rumhi bila uqlari, bal tig'i ham,
Tillar o'lub degali shukri niam.(4,86)
Sun' –yaratuvchi
Sun' iligi bolchig'in aylab xamir,
Lutf ila aylab ani ha'at pazir.(4,91)

Yaratuvchi (xudo)ning iligi uning loyini yasaganda,uning shaklini alohida bir lutf bilan yaratgan edi.

Umuman, "Hayrat ul-abror"da Mutlaq zot ko'plab teonimlar bilan ifodalangan bo'lsa-da, eng ko'p qo'llanilgani turkiycha Tengri so'zidir. Teonimlarni qo'llash orqali Navoyi Mutlaq zotning yakayu yolg'izligini, olamda hech narsa va hech kim u bilan tenglasha olmasligini, u barcha narsalar va mavjudotlarning yaratuvchisi ekanligini hamda olamdagi hamma narsalarni boshqarib turishini mahorat bilan tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Теория и методика ономастических исследований. Москва, Наука, 1986, с256.
- 2.Бегматов.Е.А. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент, «Фан».2013,264с.
- 3.Подолская Н.В. Словар русской ономастической терминологии. М.,1978.
- 4.Алишер Навоий.Хайратул-аброр. Мукамал асарлар тўплами.Еттинчи том. Тошкент. "Фан", 1991, 346с.

QO'SHMA FE'L KOMPONENTLARI INVERSIYASI

Rahmatov Mardon Mehmonovich,

Alfraganus universiteti Sharq filologiyasi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)

e-mail:mardonrahmat@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/EMJL1334

Annotatsiya. *She'riy asarlarda sintaktik shakllar inversiyaning turli ko'rinishlariga egaligi bilan boshqa tur asarlardagi inversiyalardan ajralib turadi. Mumtoz she'riy asarlarda murakkab tuzilishga ega bo'lgan sintaktik shakllarning inversiyaga uchrashi, ular esa, o'z navbatida, o'z qismlariga nisbatan turli holatlarda joylashishi tez-tez kuzatiladi. Biz ushbu hodisani Alisher Navoiyning lirik asarlari misolida ochib berishni maqsad qildik. Ushbu maqolada ko'p komponentli lug'aviy shakllardan biri – qo'shma fe'l komponentlarning inversiyasini tahlil qilishga harakat qildik. Qo'shma fe'l qismlarining she'riy misrada joylashishiga qarab turlarga ajratib o'rgandik.*

Kalit so'zlar: *sintaksis, inversiya, sintaktik shakl, kontakt, distant, qo'shma so'z, komponent, vazn, ritm.*

INVERSION OF COMPOUND VERB COMPONENTS

Abstract. *This article explores the syntactic forms in poetic works, specifically focusing on inversions, which differ significantly from those found in other types of texts due to their distinct manifestations. In classical poetic works, complex syntactic structures often undergo inversion, with their parts appearing in various positions relative to one another. The aim of this study is to examine this phenomenon through the lyrical works of Alisher Navoi. The article*

analyzes the inversion of compound verb components, a key type of multi-component lexical form, by investigating the different types of compound verb components and their positioning within the poetic line.

Keywords: *syntax, inversion, syntactic form, contact, distance, compound word, component, weight, rhythm.*

O'zbek tilida so'z tartibi masalasini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi o'tgan asrning 40-yillaridan boshlangan bo'lib, bu hodisa haqidagi ilmiy tasavvurlarning paydo bo'lishi A.N.Kononov, V.V.Reshetov, A.G'ulomov, T.S.Yadixanova, M.Mirzayev kabi olimlarning nomlari bilan bog'liq. Inversiya hodisasini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ilmiy maqola "O'zbek tilida so'z tartibi" deb nomlanib [G'ulomov, 1946: 123-124], unda o'zbek tilida so'z tartibi masalalari ko'rib chiqilgan. Inversiya hodisasini monografik planda o'rgangan birinchi olim K.Hayitmetovdir. Uning mazkur tadqiqoti ham nasriy, ham nazmiy asarlarda yuzaga keluvchi inversiya hodisasini o'rganishga bag'ishlangan [Hayitmetov, 1965: 235]. Olim o'zbek tilshunosligida birinchi marta jumla tarkibida inversiyaga uchragan sintaktik shakllarning xarakterli xususiyatiga ko'ra turli ko'rinishlari mavjudligiga e'tibor qaratadi.

Tilshunoslikdagi sintaksisda gap qurilishi, gapda so'zlarning tartibi haqida bahs yuritilsa, poetik sintaksisda (she'riy nutq) she'r misralari, baytlari va bandlaridagi jumla qurilishi hamda ularda gap bo'laklarining tartibi haqida fikr yuritiladi. She'riy nutqda she'riy jumla qurish, so'z tanlash va ularni gap qurilishida mohirona ishlatish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Poeziyada jumla qurilishi, eng avvalo, g'oyatda ixchamligi, siqiligi, shuning bilan birga, serma'noligi bilan tavsiflanadi. Bu esa she'rda so'zlarning grammatik jihatdan bog'lanishi, tilning sintaktik normalari kabi qator masalalar bilan aloqadordir [Boboyev, 2002: 422]. Boshqacha aytganda, poetik sintaksisda she'riy nutqda gap qurilishining rang-barang ko'rinishlari e'tiborga olinadi. Poetik sintaksis o'z ichiga uslubiy figuralarni qamrab oladi, jumladan, inversiyani ham. Inversiya uslubiy figura sifatida she'riy jumla shakllanishida muhim o'rin tutadi. T.Boboyevning ta'kidlashicha, lirik asarda she'riy ohang, musiqiylikni ta'minlovchi "texnik" unsurlar ichida inversiya (poetik sintaksis) ritm, vazn va qofiyadan keyingi ikkinchi o'rinda turadi [Boboyev, 2002: 195]. Inversiya – lirik matnning vazni bilan bog'liq tengsizlikni bartaraf qilishda yuzaga keluvchi sintaktik hodisa.

Alisher Navoiyning g'azallarida uslubiy figura, ya'ni inversiyaning misra/bayt tarkibidagi sintaktik shakllar (gap bo'laklari, sodda gap va qo'shma gap qismlari) orasidagi inversiyasidan tashqari tarkibli so'zlar: qo'shma so'z va frazeologizm (ibora)lar orasida ham inversiya keng tarqalgan. G'azallar matnida morfologik turi qo'shma ot, sifat, son, olmosh, ravish so'z turkumlariga qaraganda qo'shma fe'llarning inversion holatda qo'llanishi tez-tez ko'zga tashalanadi.

Alisher Navoiy g'azallari matnida qo'shma fe'llarning turli ko'rinishlari uchraydi. Uchbu maqolada biz ism+fe'l qolipli qo'shma fe'llar va ularning komponentlari orasidagi inversiya xususida so'z yuritamiz. G'azallar matnida ism+fe'l qolipli qo'shma fe'llarning ikkinchi qismi sifatida *qilmoq, bo'lmoq, aylamoq, ermas, erdi, ermish* fe'llari qo'llangan. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, qo'shma fe'llar orasida *qilmoq* qismli qo'shma fe'llar boshqalariga qaraganda ko'proq uchraydi. Ya'ni *qilmoq* boshqalariga qaraganda nisbatan sermahsul so'z yasovchi komponent deyish mumkin.

Ism+fe'l qolpidagi qo'shma fe'llarning lirik matnda joylashishi bilan bog'liq o'ziga xoslik quyidagilarda ko'rinadi. G'azallar matnida qo'shma fe'llar *odatdagi tartib va inversion tartib*da qo'llangan.

Odatdagi tartib:

1) qo'shma fe'l tarkibidagi ot va fe'l qismlar odatdagi tartibda joylashadi (kontakt joylashuv);

2) ba'zan she'riy talabga ko'ra ular orasiga inversiyaga uchragan boshqa gap bo'laklari kiritiladi, natijada qo'shma fe'l qismlari bir-biridan uzoqlashadi (distant joylashuv).

Inversion tartib:

1) inversiyaga uchragan qo'shma fe'l qismlari yonma-yon joylashadi (kontakt joylashuv)

2) inversiyaga uchragan qo'shma fe'l qismlari orasiga inversiyaga uchragan boshqa gap bo'laklari kiritiladi va ular bir-biridan uzoqlashadi (distant joylashuv).

Bir qismi fe'ldan hosil qilingan qo'shma fe'llarning inversion holati radifli g'azallarda ko'proq namoyon bo'ladi. Buni *qil* radifli g'azal matni misolida ham kuzatish mumkin. Chunki *qilmoq* so'zi radif sifatida g'azal misralari oxirida takror va takror qo'llanib, uning tayanch ot qismi esa she'riy vazn talabiga muvofiq bayt misralarining turli o'rinlarida qo'llangan.

Yog'lig'in, eykim, tikarsen, igna mujgonimni qil,

Naqsh etarda tori oning rishtai jonimni qil (FK, 373)

She'riy talabga ko'ra birinchi misradagi *igna qilmoq* qo'shma fe'li inversiyaga uchrab distant holatda qo'llangan va tarkibida o'ziga tobe sanalgan vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan. Ikkinchi misrada ham *tor qilmoq* qo'shma fe'li distant holatda qo'llanib, oning qaratqichli aniqlovchini va forsiy izofadan iborat *rishtai jonimni* vositasiz to'ldiruvchini o'z qurshoviga olgan. Boshqa baytda – *havas qilmoq* inversiyaga uchrab, distant holatda qo'llangan bo'lsa, baytning ikkinchi misrasida *naqsh qilmoq* (odatdagi tartib) esa distant holatda qo'llangan:

Qilsang ul yog'lig' aro bir she'r ham yozmoq havas,

Anda har yon naqsh bu nazmi parishonimni qil (FK, 373)

Ko'rinadiki, misrada qo'shma fe'lning fe'l komponenti radif sifatida qo'llangan bo'lsa, uning ot (ism) qismi inversiyaga uchrab, distant holatda misraning turli o'rinlarida kelishi mumkin.

Qilg'ali xil'atin ul sarvi gulandom qizil,

Qildi qon to'kmak ila dahrni gulfom qizil.

Agar misrada qo'shma fe'lning ot komponenti radif sifatida qo'llangan bo'lsa, fe'l qismi inversiyaga uchrab, distant holatda misraning turli o'rinlarida kela olgan. Shunga ko'ra qo'shma so'zlarning komponentlari g'azal misralarida qo'llanishi ancha erkin, deb aytish mumkin. U she'riy ritm va vaznga muvofiq misralarining turli o'rinlarida kontakt, distant holatlarda kela olgan.

Shuningdek, qo'shma gap qismlari bilan bog'liq turli nutq hodisalarini kuzatish mumkin. Nutq vaziyati, bayt/misraning ritm, vazn talabi bilan, ba'zan, qo'shma fe'lning ot komponenti belgisiz qo'llanishi mumkin. Uning mavjudligi bayt/misra mazmunidan anglashiladi. Quyidagi baytning ikkinchi misrasida *qizil* so'zi qo'llanmagan bo'lsa-da, uning mazmunini *ko'zdan oqar qon* birikmasi mazmunidan anglash mumkin bo'ladi:

Istasang torin qizil yoxud qora qilmoqqa rang,

Ko'z qorasin hal qilib, ko'zdin oqar qonimni qil (FK, 373)

Vazn talabi bilan, ba'zan, uyushiq qo'shma fe'llarning fe'l qismi – *qilmoq* umumiy komponenti sifatida – bir marta qo'llanishi ham mumkin. Buni quyidagi she'riy misra misolida asoslaymiz.

Ey Navoiy, kimki bu yog'liqni tiksa yor uchun,

Muzdi jonim javhariyu naqdi imonimni qil (FK, 373)

Ya'ni: *Ey Navoiy kimki bu yog'liqni yori uchun tikar bo'lsa, jonimning javharini muzdi qilsin (to'lov sifatida tiksini), iymonimni uning naqdi qilsin (eng qimmatbahosi deb tiksini) kabi.*

Shuningdek, tahlillar davomida qo'shma fe'llarning ot komponenti o'zbek tilida turg'un birikma sifatida qaraladigan forsiy izofa shakllari ham qo'llanganligi bilan e'tiborli. Fors tiliga xos izofa konstruksiyalari qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi – ot komponenti sifatida qo'llangan qo'shma fe'lning fe'l qismi ham inversiyaga uchraganligi kuzatiladi.

Ul erdagi raxshing qilibon jilvai parvoz,

Uchmoqqa falak qushlarig'a anda ne yoro. (G'S, 6)

Mazkur misolda qo'shma fe'lning asos qismi *jilvai parvoz* forsiy izofa shaklidir. *Qilmoq* fe'li unga yangi grammatik ma'no bergan. Ba'zi o'rinlarda qo'shma fe'lning *qilmoq* qismi, *etmoq* fe'li bilan sinonim komponent sifatida qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin:

Chu soqiy etti qadah ko'zgusida jilvayi husn,

Ne ayb oshiqi mayxora ko'ngli bo'lsa yabob (G'S, 44).

Mazkur misolda qo'shma fe'lning asos qismi *jilvai parvoz* forsiy izofa shaklidir. Bunday hollarda *qilmoq* fe'li bog'lama vazifasida qo'llangan va gapda grammatik ma'noni hosil qilishda qatnashgan.

Shuningdek, quyidagi baytda ham *etti* va *qilmoq* fe'llari qo'shma fe'l komponentlari sanaladi: *paydo qilmoq – paydo etti*.

Gulbarg uza qilmishsen to sabzai tar paydo,

Kun ko'zgusida go'yo zang etti asar paydo (G'S, 34)

Bundan tashqari, Alisher Navoiy g'azallarida qo'shma fe'l *bo'lmoq*, *aylamoq*, *ermas*, *erdi*, *ermish* kabi so'z shakllari yordamida ham hosil qilingan. Ular ham she'riy misrada qo'shma so'zning komponenti sifatida inversiyaga uchragan. Ularning xarakterli xususiyati *qilmoq* fe'lga nisbatan kammahsulligidadir.

Bo'lmoq tarkibli qo'shma fe'lning inversion holati.

Alisher Navoiy asarlarida ham hozirgi o'zbek tilidagi *bo'lmoq* fe'li fe'l+fe'l va ism+ot qolipida keng qo'llangan. Uning qo'shma fe'l hosil qilishi ism+fe'l qolipini tashkil qiladi. Ular ham *qilmoq* fe'li kabi ritm, vazn talabi bilan kontakt va distant holda qo'llangan. Bu jihati bilan *qilmoq* komponentli qo'shma fe'llar inversiyasidan farq qilmaydi.

Kontakt holatda:

Vasl jomidin Navoiy elga bo'ldi bahra no'sh,

Vahki, hijron sharbatidin bizga bo'ldi kom talx. (G'S, 110)

Distant holatda:

Bo'lmas ermish dilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq,

Gar kishi derkim, bo'lur, tutma musallam, ey rafiq! 311

Ba'zi baytlarda kontakt va distant holda qo'llangan:

Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,

Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand. (G'S, 115)

Mazkur baytda ikkita qo'shma fe'l (*bahra no'sh bo'lmoq, kom talx bo'lmoq, xursand bo'lmoq, farzand bo'lmoq, mahkam bo'lmoq*) qo'llangan va ular she'r talabiga ko'ra inversiyaga uchragan.

Qo'shma fe'llarning ot qismi aksariyat hollarda, o'zlashma so'zlardan shakllangani uchun fe'l qismi turli so'zlardan hosil qilinavergan. Masalan, quyidagi baytda *etmoq, bo'lmoq, aylamoq* so'zlari qo'llangan – *rahm etmoq, do'st bo'lmoq, rahm aylamak, dushman bo'lmoq*:

Rahm etib holimg'a dushman do'st bo'lmoq, vah ne sud.

Do'st chun rahm aylamay bo'lmishturur dushman manga (G'S, 13).

Aylamoq fe'li ham qo'shma fe'lning bir komponenti sifatida Alisher Navoiyning g'azallarida faol qo'llangan. Mazkur fe'l *qilmoq* fe'li bilan ma'nodosh. Bu fe'l qilmoq fe'lidan farqli holda, ko'pincha, kontakt holatda uchraydi, distant holati nisbatan kam.

Kontakt holatda:

Ugub jannat gulin voiz tilarkim, aylasam savdo.

Necha eski diramg'a Yusufum, vah, ko'rgil idrokin. (G'S, 441)

Distant holatda:

Ko'ngulni ayladim yuz chok ishqingdin, meni mahzun

Ki, husnung vasfi yozg'aymen kitobe kog'azi gulgun. (G'S, 439)

Shuningdek, *aylasa* fe'li radif sifatida ham qo'llangan ("G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 23-g'azal). Uning ot komponenti inversion qo'llanishi *qilmoq* radifli g'azalidagi kabi kontakt va distant holatda qo'llangan. Matla bayt:

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,

Har ko'ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa (G'S, 23)

Shuningdek, g'azalning ikkinchi baytida radif sifatida qo'llanmagan *tamanno aylasam*, radif sifatida qo'llangan *tamosho aylasa* qo'shma fe'llari ham odatdagi tartibda qo'llangan.

Erdi, erkan, erur, ermish, ermas to'liqsiz fe'llarining (bog'lamalarning) inversion holati. Mazkur to'liqsiz fe'llar ham qo'shma fe'l komponenti sifatida g'azallar matnidan keng o'rin olgan va turli shakllarda inversiyaga uchragan. Ulardan ayrim namunalar keltiramiz:

Xush ulki, yor firoqiyu yo ko'ngul g'amidin

Tamom umrida bir lahza erdi motamsiz (G'S, 200)

Shakkari la'li xayolidin sarosar mo'rdurur.

Sochida ermas tugun uzra tugun har tor aro (G'S, 22)

Erur ishq ahli go'ristoni-yu yuz ming mazor anda,

Fano shahriyu lavhu miyldin toqu manor anda (G'S, 24)

Ba'zan hozirgi o'zbek tilidagi kabi qo'shma fe'llar tarkibi ism+fe'l (*bo'lmoq*)+*erdi* (*emish, ermas*)dan iborat bo'lishi ham kuzatiladi:

Porsovash dilsitonim bo'lg'an ermish bodano'sh,

To boshim bo'lg'ay ayog'ing bo'lg'usi, ey mayfurush (G'S, 251)

Mazkur to'liqsiz fe'l shakllaridan *erkan* so'zining inversion holati qayd etilmadi. U g'azallar matnida fe'l va otlardan so'ng qo'llangan: *boe yo'q erkandur* (G'S, 336), *Shayx boshig'a balo erkandurur* (G'S, 256), *hashv erkanin fahm aylagay* (G'S, 97), *bu mahol ish erkanni ul ham emdi bilibdur* (G'S, 146) va b.

Shuningdek, Alisher Navoiy g'azallarida *tutmoq, tortmoq* kabi fe'llar ham qo'shma so'zlarning komponenti sifatida qo'llangan va ular ham vazn talabi bilan inversiyaga uchraganligini kuzatamiz:

Maoli ilmida mendin ham erdi johilroq,
Qayuki tutti o'zin olam ichra alloma (G'S, 528).

Qo'shma fe'llarning ot qismi undov so'zlardan ham shakllantirilgan. Masalan, *oh undovi*. Bunda undov so'z *tortmoq*, *chekmoq* fe'llari bilan qo'llanilib, qo'shma fe'l hosil qilingan: *oh tortmoq*, *oh chekmoq* kabi va ular ham she'riy matnda turli darajada inversiyaga uchragan:

Bul'ajablig' ishq aro ko'rgilki, ko'nglum cheksa oh
Zaxmi og'zidin musha'biddek sochar har yon o'tin (G'S, 503)

Shunisi e'tiborlik, yetakchi qo'shma fe'l (ism+fe'l)+ko'makchi fe'llardan iborat ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari ham g'azallar matnida kam bo'lsa-da uchraydi. Ammo uning ko'makchi qismi inversiyaga deyarli uchramaydi, qo'shma fe'lning ko'makchi qismi bilan odatdagi tartibda qo'llanadi. Bu, ehtimol, jumla ma'nosini anglashda yuzaga keladigan g'alizlikning oldini olish maqsadi bilan bog'liq bo'lsa kerak. E'tiborimizni baytdagi *zabt eta olmoq* qo'shma fe'lining inversion holati tortdi:

Zabt aylay olmas ahli ishq ko'ngli kishvarin.
Xusravekim aylay olg'ay sarbasar dunyoni zabt. (G'S 282)
Telba ko'nglungni, Navoiy, zabt aylay olmading,
Emdi chek andin ilig har sori borsa bordeg (G'S, 326)

Holat va kechinmalarni hayajonli, ta'sirli ifodalashning bosh vositasi inversiyadir. Shuning uchun har qanday shoir o'z tuyg'ularini yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi she'riy jumla shakllantirishga, vazn talabi bilan gap bo'laklarini inversion qo'llashga e'tibor beradi.

Doim tovlanib turuvchi poetik mazmun va hissiy ohangni aniq va yorqin ifodalash uchun sintaksisning an'anaviy vositalari kamlik qiladi. Klassik she'riy asarlarda nisbatan tug'un sanalgan shakllarning inversiyaga uchrashi o'ziga xos she'riy ohangni, rangbaranglikni, ma'no va ohang tovlanishlarini yuzaga chiqargan.

G'azallar matnida *qilmoq*, *bo'lmoq* komponentli qo'shma fe'llar; *erdi*, *erkan*, *erur*, *ermish*, *ermas* to'liqsiz fe'llari she'riy vazn talabi bilan bayt, misraning turli o'rinlarida qo'llana olgan.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши – Т.: Фан, 1983. – Б. 88.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1984. – Б. 160.
3. Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои. Автореф. дисс. ...канд.фил.наук. – Т., 1968. - Б. 24
4. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. – Т., 2002. - Б. 422.
5. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б. 168.
6. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – Б. 376.
7. Ғуломов А. Содда гап. – Т., 1948.
8. Ғуломов А. Ўзбек тилида сўз тартиби. Ж/Шарқ юлдузи. – Т., 1946. 1, 2-сон. – В. 123-124.
9. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Т., 1965.
10. Ҳайитметов К. Ҳозирги ўзбек тилида инверсия: Филол.фан.д-ри ...дисс. – Т., 1966. – Б. 181.

HAYOT – FIROQ MANZILI

Rashid ZOHID

ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori

*Jamoateki, junun man'ini manga qilasiz,
Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz?
Keting, ko'ngul bila jonkim, vidoingiz qildim,
Firoq agar budurur, erta kunni kech qilasiz.
Firoq vaqtidur, ey ko'zlar, emdi qon yig'lang,
Bilurmusizki, bukun ne kishidin ayrilasiz?
Ko'zum haqini bihil qildim, ey javohiri ashk
Ki, bore ham aning-o'q maqdamig'a sochilasiz.
Firoq nishlari, vahki, yana rahm etmay,
Nafas-nafas nega majruh ichimga sog'ilasiz?
Ko'ngul fasonalari, sizni, vah, netib yashuray,
Bu nav'kim, yuz uza qon yosh ila yozilasiz.
Navoiy hajrg'a qoldi, qiling visolda shukr
Jamoateki, sevar yoringiz bila bilasiz.*

Yetti baytdan iborat bu g'azal matla'i "jamoteki" so'zi bilan boshlanib, maqta' ham jamoatga nido bilan nihoyalangan. Keling, bayt sharhini matndan uzoqlashmagan holda "bu qanday jamoat ekan?" – degan savolga javob izlashdan boshlasak.

Yer yuzida insonlar jamoat bo'lib yashaydi. Har bir guruhning o'ziga yarasha hayot tarzi, tartib-qoidalari bor. Shukrki, bu yo'riqlar qanchalik bir-biridan farqlanmasin, qanchalik bir-biriga qarama-qarshi yo'nalmasin, yer o'z o'qi atrofida bir tekis aylanaveradi, qaysi bir jamoat o'z yo'nalishida kamol topsa, boshqa biri zavolga yuz tutadi. Bir qarashda boshboshdoqlikka o'xshab ko'ringan bu jarayon, aslida, hayotning mavjudlik shaklidir. Albatta, kurai zaminni to'rdek chirmagan bu xilma-xillik va o'ziga xosliklar ichidan yorib chiqib, peshqadamlar safini egallash kimlargadir Yaratganning bu dunyodagi mukofoti. Tarixga nazar tashlansa, ilohiy fazlga munosib jamoat zamonlar osha bu mukofotdan nasibador, nomunosiblar esa borgan sari bebahralikka giriftor.

Xo'sh, "Jamoateki, junun man'ini manga qilasiz / Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz?" baytida qaysi jamoat haqida so'z boryapti? Deylik, o'zidan boshqa hammani nasihat eshitishgagina haqli deb biladigan bir jamoat – odamlar toifasi borki, ular o'zlari to'g'ri deb topgan qarashlar doirasidan chiqqan kishini adashgan hisoblaydi. Garchi ular to'g'ri deb topgan qarashlar chindan ham haqiqatga muvofiq bo'lsa-da, o'zlari shu haqiqatga amal qilmaganlari uchun bunday jamoatning so'zi, pand-nasihati maqbul emas. Shuning uchun ham Navoiy: "Aql bilan ish tut, jinni bo'lmagin, deb meni telbalikdan qaytaryapsizlar-u, lekin nega o'zlaringiz meni majnunlikda ayblab tosh otayotgan telbalarga qo'shilyapsiz?!" – deb so'zi amaliga mos bo'lmagan bu jamoatga harakatining nomaqbulligini eslatyapti.

Bandaligini bo'yniga olgan har qanday inson uchun tanqidda xoh oshkoro, xoh yashirin e'tirofga arziydigan nasihat – manfaat bor. O'zini "faqat men nasihat berishga haqliman" deb sanaydiganlarning tabiati esa tanqidni ko'tarmaydi. Shuning uchun ular o'zlarini yoqlamagan barchani aqlan ozganlikda, majnunlikda ayblaydi. Hatto yaxshi-yomonning farqiga bormaydigan yosh bolalarni, ayrim ahmoqsifat yengil fikrli

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622